

Norasmiy tarjima

“Tenge Bank” ATB Kuzatuv kengashining
2022-yil 14-sentabrdagi 33-sonli
yig‘ilish bayonnomasiga 3-ilova

**“TENGE BANK” ATBning
manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish siyosati
(yangi tahrir)**

Toshkent sh. – 2022 y.

1-bob. Asosiy tushunchalar va umumiy qoidalar

1. Ushbu “Tenge Bank” ATBning Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish siyosati (bundan buyon matnda Siyosat deb yuritiladi) Bankda oilaviy aloqalar mavjudligi nuqtai nazaridan Bankning barcha xodimlari va rahbarlariga, shu jumladan savdo nuqtalari rahbarlari va xodimlariga nisbatan qo‘llaniladi va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Mazkur Siyosat O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 34 va 37-moddalari (ro‘yxatga olish raqami 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-580-sonli), “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirli tomonidan 2020-yil 30-iyundagi 3254-sonli ro‘yxatga olingan), “Bir qarz oluvchi, o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxatga olish raqami 2020-yil 29-oktabrdagi 3283-son) va “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxatga olish raqami 2020-yil 30-iyundagi 3252-son) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Siyosatda ishlatiladigan asosiy atamalar va ta’riflar:

- **Bank** – “Tenge Bank” aksiyadorlik tijorat banki;
- **Bank xodimi** – O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda (ro‘yxatga olish raqami 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-580-sonli, 5-modda. Banklarning moliyaviy operatsiyalari) ko‘rsatilgan bank faoliyati bilan bog‘liq amaliyotlar uchun mas’ul bo‘lgan va Bank bilan mehnat mehnat munosabatlariga kirgan barcha Bank xodimlari;

- **Manfaatlar to‘qnashuvi** – bu Bank xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi shaxsning mansab yoki xizmat vazifalarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yohud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

- **Yaqin qarindoshlar** - qarindoshchilik munosabatlari bilan bog‘liq shaxslar, ya’ni ota-onalar, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, turmush o‘rtoqlar, farzandlar, shu jumladan asrab olingan bolalar, bobo-buvilar, nevaralar, shuningdek, turmush o‘rtoqlarning ota-onalari, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.

- **Bank bilan bog‘liq shaxslar** - quyidagi shaxslar Bank bilan bog‘liq shaxslardir:

- ✓ Bank Kuzatuv Kengashi Raisi va a’zolari;
- ✓ Bank Boshqaruvi Raisi va a’zolari;
- ✓ bosh bankda tashkil etilgan qo‘mitalarning (bank tavakkalchiliklarini boshqarishga mas’ul bo‘lmagan qo‘mitalar bundan mustasno) bankning boshqaruv organlari a’zolari bo‘lmagan a’zolari);

✓ Muhim ahamiyatga ega xodimlar – Bank Boshqaruvi a'zosi bo'lmagan, Bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari, ularning lavozimlari Bank faoliyatiga muhim ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradigan xodimlari (2020-yil 30-iyundagi 3252-sonli “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida”gi Nizomning 77-bandida ko'rsatilgan);

✓ bevosita yoki bilvosita, yakka tartibda yoki shaxslar guruhi tarkibida birgalikda faoliyat ko'rsatuvchi, Bankda hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar;

✓ Bankning ustav kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan yuridik shaxsga nisbatan rahbarlik yoki nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar;

✓ Bank ustav fondida (ustav kapitalida) kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs, shuningdek ushbu yuridik shaxsning mansabdor shaxslari;

✓ Bank ustidan nazoratni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar ustav kapitalida (ustav fondida) kamida 20 foiziga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs;

✓ Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning yaqin qarindoshlari, shu jumladan jismoniy shaxslar va/yoki ularning yaqin qarindoshlari ustav kapitalini nazorat qiladigan yoki egalik qiladigan yoki bank boshqaruv organining a'zosi bo'lgan yuridik shaxslar;

(2020-yil 29-oktabrdagi 3283-sonli “Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida”gi Nizomning 17-bandi)

- va/yoki uning yaqin qarindoshi, u va/yoki uning yaqin qarindoshlari o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida uchinchi shaxslardan pul mablag'lari, boshqa mol-mulk, shu jumladan mulk huquqi, mulkiy xizmatlar, bajarilgan ish natijalari yoki boshqa har qanday imtiyozlar (afzalliklar) olish imkoniyati bilan bog'liq holda;

- **Bankning Korporativ etika qo'mitasi** – Bank rahbariyati va xodimlari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish vakolatiga ega qo'mita.

3. Ushbu Siyosatning asosiy maqsadi Bank xodimlarining mansab va xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oshkor qilish, ko'rib chiqish va hal qilish uchun yagona talablar va tartib-taomillarni belgilash hamda shaxsiy manfaatlar ta'sirida xodimlarning qarorlarining Bankka salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini minimallashtirish orqali manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning samarali tizimini yaratishdan iborat.

4. Ushbu Siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- manfaatlar to'qnashuvi holatlarida Bank xodimlari uchun mavjud va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish tamoyillarini, qaror qabul qilish mexanizmlari va xulq-atvor standartlari belgilash;

- Bank xodimlariga mavjud va/yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va hal qilish choralari haqida ma'lumot berish;

- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish uchun majburiy standartlarni belgilash, manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda Bank boshqaruv va nazorat organlari, shuningdek, uning xodimlari o'rtasida manfaatlar muvozanatini saqlash.

5. Bankning bank faoliyatini yuritish, maqsadlarini muvaffaqiyatli hal qilish va tashkil etilganida qo'yilgan maqsadlariga erishish qobiliyati faqat manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan taqdirdagina mumkin.

6. Bank ichidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish Bankning mulkiy manfaatlari va biznes obro'sini himoya qiladi.

2-bob. Bank aksiyadorlarining manfaatlar to'qnashuvi

7. Aksiyadorlarning manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun Bank quyidagilarga majburdir:

- Bank mansabdor shaxslari faoliyatida maksimal shaffoflikni ta'minlash;

- o'z vakolatlari va majburiyatlarini yaxshi biladigan hamda o'z vazifalarini bajarishda yuqori darajadagi biznes va axloqiy standartlarga rioya qiladigan Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruv kengashining yuqori malakali a'zolarining mavjudligini ta'minlash;

- Bank Kuzatuv kengashi Bank faoliyatini strategik boshqarishni amalga oshirishini va Boshqaruv kengashi faoliyatini samarali nazorat qilishini, shuningdek, Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining aksiyadorlar oldida hisobdorligini ta'minlash.

Bank Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagilarga majburdirlar:

- manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardan tiyilish va har qanday manfaatlar to'qnashuvi haqida Kuzatuv kengashiga darhol xabar berish va uni bartaraf etish choralari ko'rish;

- mansabdor shaxslar va aksiyadorlar darajasida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini, jumladan, Bank mulkidan noto'g'ri foydalanish va aloqador tomonlar bilan bitimlarda suiiste'mol qilishni kuzatib borish va iloji boricha bartaraf etish;

- Bankda korporativ boshqaruv amaliyotining samaradorligini nazorat qilish.

8. Bank ichida aksiyadorning ishtiroki bilan bog'liq har qanday kelishmovchiliklar yoki nizolar, agar ular Bank manfaatlariga ta'sir qilsa, Bank ichidagi ichki munosabatlarga ta'sir qilgani yoki ta'sir qilishi mumkinligi sababli, manfaatlar to'qnashuvini tashkil qiladi. Shuning uchun, bunday nizolar iloji boricha tezroq aniqlanishini va Bank, uning mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan tegishli tekshiruvlar bilan hal qilinishini ta'minlash lozimdir.

9. Bank aksiyadori axloqiy me'yorlar va Bank obro'sini yaxshilashga qaratilgan harakatlarga amal qiladi.

3-bob. Bank xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi

10. Xodimlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun Bank quyidagi maqsadlarda muvofiq ish sharoitlarini yaratishga majburdir:

- Bank xodimlarining kasbiy va martaba o‘sishi uchun;
- xodimlarning moliyaviy farovonligini oshirish uchun;
- ijodiy ish va o‘zini ifoda etishni rag‘batlantirish uchun;
- xodimlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini va o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshirish uchun;
- xodimlarning barqarorlik va xavfsizlik hissini mustahkamlash uchun;
- Bank xodimlariga zarur ma’lumotlarni, xususan, Bankning rivojlanish strategiyasi va Bankning umumiy rivojlanish rejasini yetkazish uchun.

Ushbu ish sharoitlari Bankning ichki me’yoriy hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq yaratiladi.

11. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuviga oid Tenge Bank xodimlarining korporativ axloq kodeksi xodimlar biznes qarorlarini qabul qilishda faqat Bank manfaatlariga amal qilishlari kerak degan tamoyilga asoslanadi. Xodimlar qaysi harakatlar Bank manfaatlariga mos kelishi haqidagi qarorlariga aniq yoki bilvosita ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan shaxsiy yoki boshqa manfaatlarni hisobga olmasliklari kerak.

12. Agar Bank xodimining shaxsiy manfaati, yaqin qarindoshlarining manfaatlari yoki boshqa tashkilotda xodimning o‘z xizmat vazifalarini bajarishda qarorlaridan foyda ko‘rishi mumkin bo‘lgan boshqa manfaati bo‘lsa, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin.

13. Bank rahbariyati va xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi belgilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Bank xodimining Bank manfaatlariga zid ravishda shaxsiy manfaat olish maqsadida o‘z ish vazifalarini bajarishda vakolatini suiiste’mol qilishi;
- Bank xodimining mijoz manfaatlariga zarar yetkazadigan shaxsiy manfaatlar yoki yaqin qarindoshlarining manfaatlarini ko‘zlab amaliyotlarni amalga oshirishi;
- Bank xodimi yaqin qarindoshlari va shaxsiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa shaxslarga nisbatan kadrlar bo‘yicha qarorlar qabul qilishi;
- Bank xodimining shaxsiy manfaatlari bo‘lgan shaxsga tegishli bo‘lgan tovarlar/xizmatlarni sotib olish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi;
- Bank xodimi tomonidan yaqin qarindoshlari yoki qarindoshlari foydasiga bank operatsiyalar va/yoki moddiy boyliklarni taqsimlash bo‘yicha ma’muriy hujjatlarni qabul qilishi.

Ushbu Siyosatning 13-bandida keltirilgan manfaatlar to‘qnashuvining belgilari to‘liq emas. Bank xodimlari ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan shartlar va harakatlarni mustaqil ravishda baholashlari shart.

14. Bank xodimlari Bankdagi mansab va xizmat majburiyatlarini bajarish uchun o'zlariga yuklatilgan funksional vazifalarni vijdonan bajarishlari shart.

15. Bank xodimlariga quyidagilar taqiqlanadi:

- Bankdagi xizmat vazifalarini bajarishdan vaqtlari yoki e'tiborlarining katta qismini chalg'itadigan yoki Bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tashqi biznes manfaatlarga ega bo'lish;

- Bankdan rasmiy harakatlar ko'rishini so'ragan va/yoki Bank bilan biznes aloqalariga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilotdan sovg'alar qabul qilish;

- xodimning funksional vazifalarini bajarishi yoki bajarmasligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan manfaatlarga ega bo'lish;

- Bank xodimi tomonidan o'z rasmiy vazifalarini bajarish jarayonida olingan yoki ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlardan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish;

- xodimning rasmiy mavqei sababli sovg'a berish;

- rasmiy harakatni bajarishda ta'sir ko'rsatish evaziga sovg'alarni qabul qilish;

- sovg'alar berishni so'rash yoki sovg'a berishga majburlash;

- manfaatlariga Bank manfaatlari ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shaxs yoki tashkilot tomonidan taqdim etilgan sovg'alarni qabul qilish;

- yuqori rahbariyat uchun sovg'a berish yoki so'rash.

16. Bank Bank xodimlari tomonidan qabul qilingan yoki berilgan sovg'alarni, shuningdek, ko'ngilochar xarajatlarni manfaatlar to'qnashuvining ehtimoliy manbai deb hisoblaydi.

17. Xodim sovg'a hisoblanmaydigan va quyidagilarni o'z ichiga olgan moddiy yoki nomoddiy shakldagi buyumlar/qimmatbaho buyumlarni qabul qilishi mumkin:

- faqat taqdimot uchun mo'ljallangan ahamiyatsiz qiymatga ega buyumlar, masalan, tabriknomalar, faxriy nishonlar, sertifikatlar yoki boshqa kompaniyaning esdalik sovg'alari;

- turli musobaqalarda olingan mukofotlar va sovrinlar;

- oilaviy yoki shaxsiy munosabatlar tufayli kelib chiqqanligini aniq ko'rsatadigan holatlar bo'lgan buyumlar, shuningdek, maxsus holatlarda beriladigan istisnoga kiradigan buyumlar, masalan, bayram sovg'alari yoki qo'shimcha yashirin ma'noga ega bo'lmagan shaxsiy ahamiyatga ega holatlar munosabati bilan berilgan sovg'alar.

Sovg'aning umumiy miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) baravaridan oshmasligi kerak va bir Bank xodimi tomonidan boshqa xodim uchun sovg'a sotib olishga sarflangan mablag' har bir holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravaridan oshmasligi kerak.

18. Agar Bank xodimining yaqin qarindoshi Bank mijozi, yetkazib beruvchisi yoki raqobatchisi bo'lgan har qanday tashkilotda mansabdor shaxs

va/yoki menejer va/yoki ishtirokchi (5 foizdan ortiq ulushga ega) bo'lsa, unda bunday xodimga bunday tashkilot bilan biznes munosabatlariga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish taqiqlanadi. Xodim shuningdek, bunday tashkilotlarda ishlaydigan shaxslar bilan Bankning maxfiy harakatlarini muhokama qilmasligi yoki ularni Bankning maxfiy hujjatlari yoki materiallari bilan tanishtirmasligi kerak.

19. Quyidagi hollarda yaqin qarindoshlik aloqalari manfaatlar to'qnashuvi deb tan olinadi:

- yaqin qarindoshlar Bank Boshqaruvi a'zolari va bank xizmatlari savdo nuqtalarida yuqori lavozimli mansabdor shaxslar bo'lsa;
- yaqin qarindoshlar bir-biriga hisobdor bo'lsa;
- yaqin qarindoshlar bir mustaqil tarkibiy bo'linmaning xodimlari bo'lsa;
- yaqin qarindoshlar bir mustaqil tarkibiy bo'linmaning (shu jumladan savdo nuqtalarining) xodimlari bo'lmasa ham bir-biri bilan funksional jihatdan bog'liq bo'lsa.

Bank Boshqaruvi a'zolari uchun manfaatlar to'qnashuvi, agar yaqin qarindoshlar Bankning biron bir bo'linmasida ishlasa, yuzaga keladi.

20. Agar xodim tug'ruq yoki bola parvarishlash ta'tilida bo'lsa, manfaatlar to'qnashuvi xodim bunday ta'tildan qaytgunga qadar hal qilinishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish muddati Bank Boshqaruvi Raisining roziligi bilan 10 ish kuniga uzaytirilishi mumkin.

4-bob. Kredit bo'limlarining manfaatlar to'qnashuvi

21. Bank xizmatlarini ko'rsatishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun kredit bo'limi xodimlari mijozlar bilan munosabatlarida quyidagilarni bajarishlari shart:

- mijozlar bilan munosabatlarni tomonlarning tengligi, vijdonlilik, rostgo'ylik va Bank bilan amalga oshiradigan operatsiyalari, shuningdek, ular bilan bog'liq xavflar haqida to'liq ma'lumot berish tamoyillari asosida qurishlari;
- mijozlarga o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatilishini ta'minlashlari;
- mijozning qobiliyatsizligi yoki sog'lig'i holatidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmasliklari yoki mijozlarga jinsi, millati, siyosiy yoki diniy e'tiqodi asosida teng va professional xizmatlardan bosh tortmasliklari;
- mijozlar manfaatlariga eng mos keladigan xizmatlarni tanlashda yordam berishlari;
- turli bank operatsiyalarini yuqori darajada bajarishlari;

22. Axborot taqdim etishda va maxfiylik va xavfsizlikni ta'minlashda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun bank xodimlari quyidagilarni bajarishlari shart:

- mijozlarning iltimosiga binoan ularga bank, tijorat yoki qonun bilan himoyalangan boshqa sirlarni tashkil etmaydigan Bank faoliyati haqida ma'lumotlarni taqdim etish;

- mijozlarga ularning iltimosiga binoan va o'z tashabbusi bilan Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va ulardan foydalanish shartlari, mijozlar manfaatlariga ta'sir qiluvchi Bank faoliyatidagi o'zgarishlar va mijozlardan kelib chiqadigan boshqa masalalar haqida xabar berish, bank, tijorat yoki qonun bilan himoyalangan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar bundan mustasno;

- shartnomani bajarish jarayonida mijoz bilan ma'lumot almashishning aniq tartibini ishlab chiqish, xususan, turli aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatini belgilash;

- ofisda ma'lumotlarning xavfsizligi va himoyasini ta'minlash, muzokaralar va bitimlar tuzish paytida maxfiylikni ta'minlash;

- mijozlar nomidan va ularning ko'rsatmasi bo'yicha mijozlarga kredit berish operatsiyalari, to'lov va hisob-kitob operatsiyalarining maxfiyligini saqlash;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tijorat siri bo'lgan ma'lumotlarni noqonuniy oshkor qilish natijasida Bankka yetkazilgan zararni qoplash.

23. Shikoyatlarni ko'rib chiqish va da'volarni hal qilishda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va oldini olish uchun:

- zarurat tug'ilganda mijozlarga shikoyatlar va da'volarni rasmiylashtirish, ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha maslahat berish;

- yuzaga keladigan har qanday qiyinchiliklar va nizolarni tezda va diqqat bilan ko'rib chiqish, shikoyatlar va da'volarni tezda hal qilish va qoidabuzarliklarning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur choralarni ko'rish.

24. Bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan yoki bunday shaxslar nomidan harakat qiladigan shaxslar bilan tuzadigan shartnomalari bankka aloqador bo'lmagan shaxslar uchun nazarda tutilgan shartnomalarga qaraganda ancha qulay shartlarga asoslangan hollarda bunday shartnomalarni tuzish taqiqlanadi, masalan:

- bank xizmatlari uchun bankka aloqador bo'lmagan shaxslardan talab qilinadiganidan yuqori qiymatda haq olish va to'lovlarni undirish yoki garov, kafolatlar, kafillik yoki majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning boshqa vositalarini qabul qilish;

- bankka aloqador bo'lmagan shaxslar bilan ularning tabiati, maqsadi, xususiyatlari va bankning tavakkalchiligidan kelib chiqib tuzmaydigan bitimni bankka aloqador shaxs bilan yoki shunday shaxsning manfaatlarini ko'zlab tuzilishini;

- boshqa tomonlar bilan o'xshash bitimlarga qaraganda uzoqroq davom etgan bank operatsiyalari uchun asosiy qarzni va/yoki boshqa to'lovlarni to'lashni kechiktirish.

Ushbu talabga rioya qilinishini ta'minlash uchun mijoz tomonidan kredit arizasida taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, Bankning tegishli bo'limi tomonidan berilgan ekspert xulosalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Ushbu talabga rioya qilish uchun javobgarlik bunday loyiha uchun ekspert xulosasini tayyorlayotgan xodim zimmasiga yuklatiladi.

25. Bank xodimlari ushbu Siyosatning 25-bandida ko'rsatilgan taqiq haqida o'z turmush o'rtoqlari va yaqin qarindoshlarini xabardor qilishlari shart.

Agar Bank xodimining turmush o'rtog'i yoki yaqin qarindoshi, ushbu taqiqqa zid ravishda, kredit/qarz olishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirsa, Bosh ofis xodimi o'zining bevosita rahbari va Bank Boshqaruvi Raisiga, filial xodimi esa o'zining bevosita rahbari va filial boshqaruvchisiga xabar berishlari shart.

26. Agar Bank xodimi manfaatlar to'qnashuvini yoki uning yuzaga kelish ehtimolini aniqlasa, u darhol o'zining bevosita rahbariga xabar berishga majburdir. Agar rahbar tomonidan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki bartaraf etishga qaratilgan choralar ko'rilmasa, Bank xodimi Komplaens nazorati bo'limiga xabar berishga majburdir.

27. Agar xodim yoki uning bevosita rahbarida manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki manfaatlar to'qnashuvini hal qilish usuli va/yoki uning oqibatlari bilan bog'liq shubha vujudga kelsa, xodim Komplaens nazorati bo'limidan yordam so'rashi kerak.

28. Agar kichik biznes loyihalari uchun kredit berishni amalga oshiruvchi bo'linma tomonidan moliyaviy vositaning amal qilish muddati davomida manfaatlar to'qnashuvi aniqlansa, mazkur masala loyiha bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish uchun Bankning biznes maqsadlari uchun moliyaviy vositalarni taqdim etish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha ichki kredit siyosatini amalga oshirish asosiy vazifasi bo'lgan Bankning vakolatli organiga taqdim etiladi.

Agar bunday nizoni hal qilishning iloji bo'lmasa, masala Bank Boshqaruvi va/yoki Kuzatuv Kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

29. Bank Kuzatuv Kengashi, istisno hollarda, tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etuvchi Bank xodimlariga, ularning turmush o'rtoqlariga va yaqin qarindoshlariga kreditlar berish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega, yuridik shaxslar aksiyalarining 5 (besh) foizidan ko'prog'ini tashkil etuvchi aksiyadorlar bundan mustasno.

30. Ushbu bob talablariga rioya qilinishini nazorat qilish Bankning kredit faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linmalariga yuklatilgan.

5-bob. Bankning mustaqil tarkibiy bo'linmalarining manfaatlar to'qnashuvi

31. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun mustaqil tarkibiy bo'linma quyidagilarga majburdir:

- boshqa mustaqil tarkibiy bo'linmalar bilan funksiyalar takrorlangan taqdirda, shuningdek, bir xil bo'linma ham Front ofis, ham Back ofis funksiyalarini bajargan yoki ushbu bo'linmalar Boshqaruv Raisining bir o'rinbosari tomonidan nazorat qilingan hollarda mustaqil tarkibiy bo'linma faoliyatini tartibga soluvchi ichki qoidalarga zarur o'zgartirishlar kiritish choralarini ko'rish;

- ushbu tarkibiy bo‘linma vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha Bankning boshqa bo‘linmalari tomonidan so‘ralgan zarur ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etish;
- Bankning umumiy maqsad erishish va vazifalari bajarish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda barcha tarkibiy bo‘linmalar bilan hamkorlik qilish;
- ushbu bo‘linma vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilishda yordam berish;
- Bankning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi tartibga muvofiq boshqa bo‘linmalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;
- boshqa bo‘linmalar bilan o‘zaro munosabatlarda axloqiy tamoyillar va standartlarga rioya qilish.

6-bob. Bank xizmatlari savdo nuqtalarining manfaatlar to‘qnashuvi

32. Bosh ofis bilan manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun bank xizmatlari savdo nuqtalari quyidagilarga majburlar:

- Bosh ofis tomonidan belgilangan muddatlarda va to‘liq buxgalteriya hisobi, statistik, moliyaviy, boshqaruv va boshqa hisobotlarni taqdim etish;
- so‘rov bo‘yicha Bosh ofisga har qanday ma’lumotni taqdim etish;
- Bank qoidalari va filial qoidalariga muvofiq o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish;
- Bank mulkidan faqat Bank maqsadlari uchun foydalanish;
- belgilangan moliyaviy-iqtisodiy faoliyat rejasini amalga oshirish;
- savdo nuqtalariga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish;
- Bank yoki uning obro‘sig a jiddiy yoki boshqa zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan qarorlarni qabul qilish jarayonida bosim o‘tkazilganda Bank xodimlari va mijozlari bilan manfaatlar to‘qnashuvining barcha holatlari haqida Bosh ofis rahbariyatini xabardor qilish;
- maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik.

33. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun savdo nuqtasi va Bank o‘rtasidagi munosabatlar uning Bosh ofis oldida to‘liq hisobdorlik tamoyiliga asoslanishi kerak.

7-bob. Bankning Korporativ etika komissiyasining manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish tartibi

34. Ushbu bob Siyosatda ko‘rsatilgan barcha manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish tartibini tartibga soladi, aksiyadorlar manfaatlari to‘qnashuvi bundan mustasno.

35. Manfaatlar to‘qnashuvini samarali aniqlash, oldini olish va hal qilish uchun:

- Bankning har bir xodimi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi haqida o‘zining bevosita rahbariga yozma ravishda xabar berishi shart;

- mustaqil tarkibiy bo‘linma rahbari xabar qilingan nizo ehtimolini va uni hal qilish uchun qanday choralar ko‘rilishi mumkinligini tahlil qilishi kerak;
- agar xabar qilingan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘linma vakolatiga kirmasa, rahbar darhol Xodimlarni boshqarish boshqarmasi va Bankning Komplaens nazorati boshqarmasiga manfaatlar to‘qnashuvi haqida yozma ravishda xabar berishi kerak;
- manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni har yili oshkor qilish (yillik deklaratsiya) orqali manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish;
- yuzaga kelgan manfaatlar to‘qnashuvi manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadigan Korporativ etika komissiyasi a’zolari ushbu nizo bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etmasliklari kerak;
- Korporativ etika qo‘mitasi o‘rganish natijalari va taqdim etilgan hujjatlar va materiallar asosida oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qaror qabul qiladi;
- Korporativ etika qo‘mitasining qarori qaror qabul qilinganidan keyin uch kun ichida nizo tomonlariga yetkaziladi.

36. Ichki audit boshqarmasi audit tekshiruvining bir qismi sifatida bo‘lim xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvini cheklovchi siyosat va tartib-taomillarga rioya qilishini auditdan o‘tkazadi.

37. Bankdagi vakolatlari tufayli manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda ishtirok etishga majbur bo‘lgan har qanday shaxs bu nizo uning manfaatlariga ta’sir qiladigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan har qanday holatdan xabardor bo‘lgandan so‘ng darhol o‘zining bevosita rahbariga xabar berishi kerak.

8-bob. Bank va xodimlarning javobgarligi

38. Bank xodimlari, lavozimidan qat’i nazar, ushbu Siyosat talablariga rioya qilish, shuningdek, ushbu talablarni buzgan o‘z qo‘l ostidagi xodimlarining harakatlari (harakatsizligi) uchun shaxsan javobgardirlar.

39. Ushbu Siyosatni va/yoki manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va hal qilish bo‘yicha boshqa ichki qoidalarini buzganlikda aybdor deb topilgan Bank xodimlari intizomiy va fuqarolik javobgarligiga tortilishi mumkin. Agar sud qarori bilan aybdor deb topilsa, Bank xodimi qonunga muvofiq ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

9-bob. Yakuniy qoidalar

40. Siyosatda tavsiflanmagan, ammo Bank ichida yuzaga keladigan boshqa har qanday manfaatlar to‘qnashuvi Siyosatda belgilangan tartibda hal qilinadi.

41. Ushbu Siyosat Bank ichidagi oilaviy aloqalarga nisbatan Bosh ofis va savdo nuqtalari xodimlari va rahbarlari uchun majburiydir.

42. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki hal qilish talablarini buzgan Bank xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

43. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o'zgarishlar natijasida ushbu Siyosatning ayrim qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lsa, unda ushbu Siyosatga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Siyosatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan qismda amal qilish lozim.

44. Ushbu Siyosatga barcha o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar Komplaens nazorati boshqarmasi tomonidan kiritiladi.

45. Ushbu Siyosat, shuningdek, ushbu Siyosatga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.